

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/03.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

YODGOROV SUNNATILLO QAXRAMON O‘G‘LI

PAXTA TOLASI NAVINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH

**05.06.01- To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari
materialshunosligi**

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Yodgorov Sunnatillo Qaxramon o‘g‘li

Paхта tolasi navini aniqlash usulini takomillashtirish..... 3

Ёдгоров Суннатилло Кахрамон угли

Совершенствование метода определения сорта хлопкового
волокна..... 23

Yodgorov Sunnatillo Khahramon o‘g‘li

Improving the method for determining the grade of cotton fiber..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published
works..... 47

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/03.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

YODGOROV SUNNATILLO QAXRAMON O‘G‘LI

PAXTA TOLASI NAVINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH

**05.06.01- “To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari
materialshunosligi”**

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PHD/T5693 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttyesi.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kulmetov Mirpolat

texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumaniyazov Kadam

texnika fanlari doktori, professor

Bayxanov Bahtiyor Ashrabiddinovich

texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 17 dekabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon ko'chasi, 5. tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: ttyesi_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (257-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 3 dekabr kuni tarqatildi.

(2025 yil 3 dekabrda 257-raqamli reyestr bayonnomasi).



X.H.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d.

A.Z.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d.

N.R.Xanxadjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta tolasi ishlatilishi bo'yicha umumiy tola miqdorining 55-60 foizini tashkil etadi. Dunyo statistikasi va paxta bo'yicha Xalqaro konsultativ qo'mita (ICAC) ma'lumotlariga ko'ra "2023/2024-yil mavsumida paxta tolasini eksportyorlari beshtaligiga AQSh, Braziliya, Xitoy, Bangladesh va Vetnam mamlakatlari yetakchi o'rinlarni egallamoqda". Sifatli ingichka ip olish uchun, uzun tolali paxtaning yangi seleksiya navlaridan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada, paxta xomashyosidan sifatli mahsulot olishning samarali texnologiyasini, hamda xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshiradigan energiya-resurstejamkor texnologiyani, texnologik jarayon parametrlari va ish rejimlarini asoslash, mahsulot sifatini aniqlashda yangi usullarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Jahon paxta xomashyosidan samarali foydalanish va raqobatbardosh to'qimachilik uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan paxta tolasi navini aniqlash usulini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada, paxta xomashyosidan sifatli mahsulot olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish hamda resurslarni tejash, olingan xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshiradigan resurstejamkor texnologiyani ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda hozirgi kunda paxta xomashyosidan samarali foydalanish imkonini beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni- 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxta tolasidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va uni eksporti uchun kerak bo'ladigan sifatli qayta ishlash bilan birga, belgilangan tartibda amalga oshiradigan, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalashgan mashinalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 1-maydagi PF-71-son, "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib

chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2022 yil 18-martdagi PQ-170 son "Surxondaryo viloyatida ingichka tolali paxta yetishtirishni ilmiy asosda amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori¹ hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Seleksiya jarayonining rivojlanish istiqboli, yangi seleksion navlarning tola chiqimi va uni sifat ko'rsatkichlarini baholash, tolalarning tuzilishi bo'yicha xorijiy olimlardan G.Sunilkumar, L.M.Campbell, L.Puckhaber, R.D.Stipanovic, K.S.Rathore, J.F.Wendel, M.Giband, D.Dessauw, P.A.V.Barroso, A.M.Abdalla, O.U.K.Reddy, J.Stahel, D.Steven, C.Jenny, M.J.Iqballar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Turli seleksiya navlar sifat ko'rsatkichlarini o'rganish va baholash bo'yicha respublikamiz olimlaridan J.S.Sattarov, Sh.A.Teshayev, B.Sulaymonov, M.J.Isroilov, S.T.Jurayev, F.N.Toreyev, I.T.Kahhorov, X.Y.To'chiyev, T.D.Alambergenov, A.K.Kahramonov, J.Axmedov, A.Nuriddinov, A.Raximov, G'.Raxmatullayev, G.Djumayeva, G.R.Xolmurodova, Sh.E.Namozov, S.Matyokubov, A.Ergashev, B.Madatov, M.A.Xodjinova, R.Z.Burnashev, V.N.Guseynov, V.A.Bogomolov, A.D.Sapon, Z.M.Musaxodjayev, YE.F.Budin, B.N.Yakubov, A.A.Muratov, M.M.Jamolova, M.Qulmetov, T.A.Ochilov, I.Madumarov va boshqalar tomonidan izlanishlar olib borilib, turli tavsiyalar berilgan.

Lekin, xorijdan mahalliy paxta tozalash korxonalariga zamonaviy texnika va texnologiyalarni olib kelish ko'p mablag'ni talab etadi. Yuqorida qayd etilgan tadqiqot ishlarida muammoning bir qismi qamrab olingan bo'lib, hozirgi kunda to'qimachilik va yengil sanoatda chiqadigan yangi material va buyumlar sifatini aniqlash va baholash optimal variantlarni tavsiya etish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Istiqbolli seleksion navlar sifatini yuqori aniqlikdagi o'lchash, uchun LPS-4 asbobida aniqlash usulini takomillashtirishga oid tadqiqotlarni o'tkazish muhim ahamiyatga egadir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy ishlar rejasiga muvofiq 40/2024 yildagi "Turli tarkibli iplarning sifat ko'rsatkichlarini baholash usulini takomillashtirish" mavzusida xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli seleksiya navlari paxta tolasi sifat ko'rsatkichlarini LPS-4 asbobida aniqlash usulini takomillashtirish va laboratoriya namunalari optimal massasini tanlashdan iboratdir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18-martdagi "Surxondaryo viloyatida ingichka tolali paxta yetishtirishni ilmiy asosda amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-170 sonli qarori.

Tadqiqotning vazifalari:

turli istiqbolli seleksiya navlar tolasi va undan olingan iplarning fizik-mexanik xossalarini tadqiq etish;

turli seleksion navlar tolasining sifatini yuqori aniqlikdagi o'lchash uchun LPS-4 asbobida aniqlash usulini takomillashtirish asosida parametrlarini tavsiya etish;

yangi metodologiyaga muvofiq tola sifat ko'rsatkichining o'lchash diapazoniga mosligini tekshirish va chegaraviy qiymatlari mos keladigan holatdagi tenglamani olish hamda istiqbolli seleksiya navlari uchun LPS-4 asbobida barcha o'lchash diapazonlari uchun namunalarning optimal massasini aniqlash;

turli seleksion navlar paxta tolasi namunalari massasi va chiziqli zichliklarining o'lchanayotgan namunadagi havo oqimining bosimi o'zgarishi va u bilan bog'liq bo'lgan tola uzilish kuchiga o'zaro bog'liqligini ifodalovchi regressiya bog'lanishlarni to'liq omilli eksperiment yordamida ishlab chiqish;

turli seleksiya navlarini dastlabki ishlashda tola sinfining o'zgarishi hisobiga yillik iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida istiqbolli uzun tolali seleksion navlari tolasining sifatini yuqori aniqlikdagi o'lchashni ta'minlashda LPS-4 asbobi va tola hamda ip sifatini aniqlashdagi sinov asboblari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida turli seleksiya navlari tolasi va yigirilgan iplar olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida uzun tolali seleksion navlari tolasi va undan olingan iplarning sifatini baholashda maxsus va zamonaviy usullar, to'liq omilli tajriba, sinov natijalarini qayta ishlash, regressiya model qurish orqali baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

istiqbolli seleksion navlarning sifatini yuqori aniqlikda o'lchashni ta'minlashda LPS-4 asbobidan foydalanilgan holda tola massasi va bosimini o'zgartirish hisobiga uning navini aniqlash usuli takomillashtirilgan;

yangi metodologiyaga muvofiq tola sifat ko'rsatkichining o'lchash diapazoniga mosligi aniqlangan va paxta tolasi navini uzilish kuchini inobatga olgan holda aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

LPS-4 asbobida bosim o'zgarishining DSH-3M dinamometrida seleksion navlari tolasining turlicha massadagi namunalari uchun approksimatsiya koeffitsiyenti va uzilish kuchiga darajali bog'lanish tenglamalari ishlab chiqilgan;

tadqiq etilayotgan turli paxta seleksiya tolasi navlarini LPS-4 asbobida aniqlashda barcha o'lchash diapazonlari uchun tola namunalarning optimal massasi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli istiqbolli uzun tolali seleksiya navlari tolasining fizik-mexanik xossalari tadqiq etilgan va rayonlashtirishning optimal varianti ishlab chiqilgan;

uzun tolali seleksion navlari tolasining sifatini yuqori aniqlikdagi o'lchashni ta'minlashda LPS-4 asbobida aniqlash usuli takomillashtirilgan;

LPS-4 asbobida bosim o'zgarishining DSH-3M dinamometrida seleksion navlari tolasining turlicha massadagi namunalari uchun approksimatsiya

koeffitsiyenti va undan yuqori bo'lgan hollarda aniqlangan uzish kuchiga darajali bog'lanish tenglamalari ishlab chiqilgan;

tadqiq etilayotgan seleksiya navlari uchun LPS-4 asbobida barcha o'lchash diapazonlari uchun namunalarning optimal massasi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida standart usul va vositalardan foydalanganligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, uzun tolali seleksion navlari tolasining sifatini yuqori aniqlikdagi o'lchashni ta'minlashda LPS-4 asbobida aniqlash usuli ishlab chiqilganligi, tadqiqot natijalarini baholashning ma'lum mezonlarga muvofiqligi hamda nazariy tadqiqot natijalarining tajribaviy natijalarga mos kelishi va ishonchlik ehtimolligi $\pm 5\%$ bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uzun tolali seleksion navlari tolasining sifatini yuqori aniqlikdagi o'lchashni ta'minlashda LPS-4 asbobida aniqlash usuli ishlab chiqilgan, LPS-4 asbobida bosim o'zgarishining DSH-3M dinamometrida seleksion navlari tolasining turlicha massadagi namunalar uchun approksimatsiya koeffitsiyenti va undan yuqori bo'lgan hollarda aniqlangan uzish kuchiga darajali bog'lanish tenglamalari ishlab chiqilgan, uzun tolali seleksion navlari paxta tolasini laboratoriya namunalari massasining va chiziqli zichliklarining o'lchanayotgan namunadagi havo oqimining bosimi o'zgarishi va u bilan bog'liq bo'lgan tola uzilish kuchiga o'zaro bog'liqligini ifodalovchi regressiya bog'lanishlarni to'liq omilli eksperiment yordamida ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiq etilayotgan seleksiya navlari uchun LPS-4 asbobida barcha o'lchash diapazonlari uchun namunalarning optimal massasi aniqlangan, turli istiqbolli uzun tolali seleksiya navlari tolasining fizik-mexanik xossalari tadqiq etilgan va rayonlashtirishning optimal variantini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uzun tolali seleksion navlari tolasining sifatini yuqori aniqlikdagi o'lchashni ta'minlashda LPS-4 asbobida aniqlash usulini ishlab chiqish va barcha o'lchash diapazonlari uchun namunalarning optimal massasi aniqlash bo'yicha olingan natijalar asosida:

taklif etilayotgan uzun tolali paxtadan ip ishlab chiqish va tola sifatini aniqlash usulini takomillashtirish "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tassarufidagi korxonalarda, shu jumladan, "Zamin angor cluster" MCHJ korxonasida amaliyotga joriy qilindi (O'zto'qimachilik sanoati uyushmasi 2025 yil 25 yanvardagi 03/25-180-son ma'lumotnomasi). Natijada, uzun tolali paxtani keng rayonlashtirish borasida tavsiya ishlab chiqilgan undan olingan iplarning notekisligi 4,0% dan 6,3% gacha, variatsiya koeffitsiyenti 2,63% dan 5,3% gacha, tukdorligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 2,25% dan 5,25% gacha kamayganligi, uzilish kuchi 3,03% dan 5,65% gacha, solishtirma uzilish kuchi 1,91% dan 5,64% ga oshganligi aniqlangan;

taklif etilayotgan paxta tolasining navini aniqlash usuli "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tassarufidagi korxonalarda, shu jumladan, Surxondaryo viloyatidagi "Denov tekstil klaster" MCHJ korxonasida joriy qilindi (O'zto'qimachilik sanoati uyushmasi 2025 yil 25 yanvardagi 03/25-180-son ma'lumotnomasi). Natijada, LPS-4 asbobida bosim o'zgarishining hisobiga DSH-3M dinamometrida Termez 49 va Surxon-101 seleksion navlari tolasining

solishtirma uzilish kuchi 4,0% ga, yuqori o'rtacha uzunligi 1,6% ga oshganligi, kalta tolalar indeksi 3,6% ga kamayganligi, uzilishdagi uzayishi 4,2% ga, yigiruvchanlik xususiyati 2,9% ga oshganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 17 ta, jumladan 7 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy maqolalardan iborat, shulardan 3 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK jurnallarida, 5 ta xorijiy ilmiy jurnallarda, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xuzuridagi Intellectual mulk agentligining dasturiy mahsulot uchun № DGU 41089 guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsad va vazifalarni belgilaydi, uning obyekti va predmetini shakllantiradi, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ko'rsatadi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qiladi, olingan natijalarning ishonchliligini asoslaydi, nazariy ochib beradi va olingan natijalarning amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda tatbiq etish, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy-texnik adabiyotlar sharhi va masalalarning qo'yilishi”** deb nomlangan birinchi bobida paxtachilikning sanoatining rivojlanishi, paxta seleksiyasi va uni rivojlanish istiqbollari, tolaning tuzilishi va xususiyati, turli seleksiya navlaridan olingan iplarning sifat ko'rsatkichlarining tadqiqoti, paxta tolasi navini aniqlash usuli takomillashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi.

Dissertatsiya ishining **“Tadqiqot obyekti va paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usulini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida turli seleksiya navlarini sinash obyekti, turli seleksiya navlari tolasi va iplarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uslublari, Termez-49 va Surxon-101 seleksiya navlari paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini LPS-4 asbobida aniqlash usulini takomillashtirish, paxta tolasi uchun laboratoriya namunalarining optimal massasini tanlash va asoslash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishlari Surxondaryo viloyatidagi "Zamin angor cluster" MCHJ, "Denov tekstil klaster" MCHJ va Navoiy viloyatidagi "Baht-textile" MCHJ klaster tizimidagi korxonalarda olib borildi. Uning uchun, Surxondaryo viloyatining ba'zi bir fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotgan istiqbolli Surxon-9, Surxon-101, Termez-49, Termez-208 va Surxon-102 seleksiya navlarini klaster tizimidagi paxta tozalash korxonalarida dastlabki ishlagandan keyin namunalar olinib, chigitning nuqsonlari, tola tuzilishi, tola tarkibidagi nuqson va chiqindilar miqdori, hamda tola va undan olingan iplarning fizik-mexanik xossalari klaster tizimidagi "Maroqand sifat textile"

MCHJ korxonasi sinov laboratoriyasida va «Tolali ekinlar ilmiy tadqiqot instituti» laboratoriyalarida tadqiq etildi.

Undan tashqari, uzun tolali seleksion navlari tolasining sifatini yuqori aniqlikdagi o'lchashni ta'minlashda LPS-4 asbobida aniqlash usuli takomillashtirish asosida namunalarning optimal massasi aniqlandi.

Tadqiqot uslubi shundan iboratki, laboratoriya namunalariing optimal massasini tanlash 0,1 g ga farqlanadigan namunalarning LPS-4 asbobida va DSH-3M dinamometrida arbitraj usulida aniqlangan uzilish kuchi qiymatlarini qiyoslash orqali amalga oshirildi.

Sinov ishlari uchun laboratoriya namunalari " O'zMSt 424:2024 Paxta tolas. Namuna olish usullari" standarti bo'yicha tanlab olindi. Sinov ishlari esa "O'z DSt 618:2014. Paxta tolas. Pishib yetilganligini aniqlash usullari" hamda "O'z DSt 619:2014. Paxta tolas. Nisbiy uzilish kuchini aniqlash usullari" va "O'z DSt 620:2014. Paxta tolas. Chiziqiy zichlik va mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash usullari" standartlari bo'yicha o'tkazildi. Har bir namunadan kichik namunalar olinib tarozida massasi 6,4 g, 6,5 g, 6,6 g, 6,7 g, va 6,8 g bo'lgan 5 tadan namunalar xatoligini $\pm 0,01$ g dan katta bo'lmagan holda tarozida o'lchab olindi, LPS-4 asbobida sinovlar o'tkazish vaqtda natijalarning katta og'ishmalarida parallel sinalayotgan namunalar soni ikki marotaba oshirildi.

LPS-4 asbobining ishlash prinsipi havo o'tkazuvchanlikni aniqlash usuliga asoslangan bo'lib, unda sinalayotgan paxta tolas. namunasidagi havo oqimi bosimining o'zgarishi ΔP bilan aniqlanadigan tola uzilish kuchi F , o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish qo'llaniladi.

$$\Delta P = \frac{a_0}{Fa_1}, (1)$$

bunda, a_0 , a_1 -har bir seleksion nav uchun alohida o'rnatiladigan empirik doimiylar.

DSH-3M dinamometrida tolauzilish kuchini aniqlash natijalarining har bir namuna uchun qayta aniqlash dispersiyasini quyidagi formula bo'yicha hisoblandi:

$$S_{\text{soch}}^3 = \frac{\sum_{k=1}^{n_2} (F_{ik} - \bar{F}_i)^2}{n_2 - 2} \quad (2)$$

Qayta aniqlanish dispersiyasi bir turliligini (bir jinsliligini) Koxren mezoni bo'yicha ahamiyatlilikning 0,05 darajasi bo'yicha tekshirildi.

$$G_{\text{pacu}} = \frac{(S_{\text{sochnp}}^2)_{\text{max}}}{\sum_{i=1}^N (S_{\text{sochnp}}^2)} \leq G_{\text{mao}} \quad (3)$$

bu yerda, N -bir seleksion navga tegishli bo'lgan sinalayotgan namunalar soni.

Dispersiyalarning bir turliligini aniqlangandan so'ng qayta aniqlanish dispersiyasining o'rta qiymatini quyidagi formula bo'yicha aniqlandi:

$$S_{\text{sochnp}}^2 = \frac{\sum_{i=1}^N S_{\text{sochnp}}^2}{N} \quad (4)$$

Bosim o'zgarishi ΔP va har bir seleksion nav uchun tola uzilish kuchining

o'rta qiymatlarini qiyoslash (solishtirish) asosida EHM da quyidagi tenglama hisoblab chiqildi:

$$\overline{F} = \frac{A}{\Delta P^B}, \quad (5)$$

bu yerda A, B-regressiya tenglamasi koeffitsiyenti.

Regressiya tenglamasi uchun adekvatlik dispersiyasini quyidagi formula bo'yicha aniqlandi:

$$S_{ad}^2 = \frac{\sum_{i=1}^N (\overline{F}_i - \overline{\overline{F}}_i)^2}{N - K - 1}, \quad (6)$$

Bu yerda $\overline{F}_i$, $\overline{\overline{F}}_i$ - uzilish kuchining mos ravishda hisobiy va eksperimental qiymatlari, gf; K - o'zgaruvchan omillar soni ($K=1$).

Aniqlangan regressiya tenglamalarining eksperimental natijalarga mos kelishini (adekvatligini) Fisher mezoni bo'yicha ahamiyatlilikning 0,05 darajasida tekshirildi:

$$F_{pacu} = \frac{S_{ad}^2}{S_{ocn}^2} \leq F \quad (7)$$

Massasi 6,4; 6,5; 6,6; 6,7, 6,8 g bo'lgan namunalar uchun olingan tenglamalar adekvatligi aniqlangandan so'ng, bosim o'zgarishining berilgan oraliq'i (175 dan 600 mm H₂O gacha) tola uzilish kuchini talab etiladigan oraliqda (diapazonda) (2,1-5,0 gf) o'lchashni taminlovchi optimal massani tanlash maqsadida aniqlangan tenglamalarni bosim o'zgarishining chegaraviy qiymatlarida tadqiq etildi.

Buning uchun LPS-4 asbobida bosim o'zgarishining chegaraviy qiymatlari (174 mm H₂O va 600 mm H₂O) berilib, tenglama bo'yicha uzilish kuchining tegishli qiymatlari hisoblandi (F_{max} bo'lganda, $\Delta P_{min} = 175$ mm H₂O ga teng, F_{min} bo'lganda, $\Delta P_{max} = 600$ mm H₂O tengdir).


Uzilish kuchining olingan qiymatlaridan quyidagi shartlarni taminlovchi qiymatlari tanlab olindi:

$$\overline{F}_{max} \geq 5,0; \quad (8)$$


$$1,9 < \overline{F}_{min} \leq 2,2 \quad (9)$$

bu yerda, $\overline{F}_{max}$, $\overline{F}_{min}$ - darajali tenglama bo'yicha bosim o'zgarishining chegaraviy qiymatlariga to'g'ri keluvchi uzilish kuchining hisobiy qiymatlari, gf; 2,0; 2,2; 5,0-berilgan oraliqdagi uzilish kuchinin chegaraviy qiymatlari, gf.

Termez-49 va Surxon-101 seleksion navlari tola namunalarining turli massalari uchun tadqiq etilayotgan diapazon (oraliqlar) uchun LPS-4 asbobida havo oqimi bosimining o'zgarishi ΔP ning tola uzilish kuchi F bog'lanish regressiya tenglamalarining grafik tasviri quyidagi rasmlarda berilgan. Shuningdek tadqiq etilayotgan Termez-49 va Surxon-101 seleksion navlari uchun tolaning optimal massasi 6,4 g uchun havo oqimi bosimining ΔP tola chiziqiy zichligiga bog'lanishlari keltirilgan.



1-rasm. Termez-49 navi tola namunasi 6,4 g bo'lganda LPS-4 asbobida ΔP bosim o'zgarishining DSH-3M dinamometridagi tola uzilish kuchi F ga bog'liqlik grafigi.



2-rasm. Termez-49 navi tola namunasi 6,5 g bo'lganda LPS-4 asbobida ΔP bosim o'zgarishining DSH-3M dinamometridagi tola uzilish kuchi F ga bog'liqlik grafigi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida ΔP bosim o'zgarishining Termez-49 va Surxon-101 seleksion navlari tolasining uzish kuchi F va T chiziqli zichligiga darajali bog'lanish tenglamalari aniqlandi.

Termez-49 tolasini uzilish kuchiga bog'liq ravishda bosim o'zgarishining bog'lanish tenglamasi turli namuna massalari uchun quyidagicha:

6,4 g	$\Delta P = 1542,5 F^{-1,301}$	$R^2 = 0,9582$
6,5 g	$\Delta P = 1457,2 F^{-1,246}$	$R^2 = 0,9564$
6,6 g	$\Delta P = 1472,5 F^{-1,241}$	$R^2 = 0,9653$
6,7 g	$\Delta P = 1503,7 F^{-1,24}$	$R^2 = 0,9627$
6,8 g	$\Delta P = 1663,6 F^{-1,293}$	$R^2 = 0,9682$

Surxon-101 tolasini uzilish kuchiga bog'liq ravishda bosim o'zgarishining bog'lanish tenglamasi turli namuna massalari uchun quyidagicha:

6,4 g	$\Delta P = 1435,8 F^{-1,26}$	$R^2 = 0,9678$
6,5 g	$\Delta P = 1451,9 F^{-1,254}$	$R^2 = 0,9586$
6,6 g	$\Delta P = 1593,2 F^{-1,302}$	$R^2 = 0,9544$
6,7 g	$\Delta P = 1561,8 F^{-1,275}$	$R^2 = 0,9587$
6,8 g	$\Delta P = 1622,1 F^{-1,288}$	$R^2 = 0,9611$

Qayd etilgan seleksion navlar uchun optimal tenglama sifatida namuna massasi $m = 6,5$ g bo'lgandagi darajali tenglama qabul qilindi.

Termez-49 tolasini uchun namuna massasi $m = 6,4$ g bo'lganda bosim o'zgarishining chiziqli zichlikka bog'lanish bog'lanish tenglamasi:

$$\Delta P = 1478648,37 T^{-1,78}, \quad R^2 = 0,96. \quad (2.23)$$

Surxon-101 tolasini chiziqli zichligiga bosim o'zgarishining bog'lanish tenglamasi namuna massasi 6,4 g bo'lganda quyidagicha:

$$\Delta P = 2326556,15 T^{-1,87}, \quad R^2 = 0,97. \quad (2.24)$$

Sinovlar o'tkazish uchun qayd etilgan massada paxta tolasining seleksion navlari bo'yicha pishib yetilganligi, chiziqli zichligi, uzish kuchi va nisbiy uzish kuchini o'lchash uchun darajali tenglamalari hosil qilindi (ishlab chiqildi) va uzun tolali Termez-49 va Surxon-101 navlari bosim o'zgarishi va tola sifati regression koeffitsiyentlari orqali baholandi:

Termez-49 navi uchun:

$$\Delta P = 584,18 K_3^{-1,405}, \quad R^2 = 0,996,$$

$$\Delta P = 1478648,37 T^{-1,78}, \quad R^2 = 0,96,$$

$$\Delta P = 1542,5 F^{-1,301}, \quad R^2 = 0,958,$$

Surxon-101 navi uchun

$$\Delta P = 584,18 K_3^{-1,40}, \quad R^2 = 0,996,$$

$$\Delta P = 2326556,15 T^{-1,87}, \quad R^2 = 0,97,$$

$$\Delta P = 1435,8 F^{-1,26}, \quad R^2 = 0,968$$

Dissertatsiya ishining “Paxtaning tozalanish samaradorligi va tolaning sifat ko‘rsatkichlarini baholash va tahlili” deb nomlangan uchinchi bobida paxtani dastlabki ishlash jarayonining turli seleksiya navlarining tozalanish samaradorligi va chigitning ifloslik miqdoriga ta’siri, tola tuzilishi va sifat ko‘rsatkichlari hamda tolaning mexanik shikastlanishi va buramdorligining o‘zgarishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Surxondaryo viloyatida istiqbolli va rayonlashtirilgan turli seleksiya navlarining mayda va yirik iflosliklardan tozalanish samaradorligi aniqlandi va olingan sinov natijalari 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Turli seleksiya navlarining mayda va yirik iflosliklardan tozalanish samaradorligining o‘zgarishi

T/r	Ko'rsatkichlar	Seleksiya navlari				
		Termez-49	Surxon-101	Surxon-9	Termez-208	Surxon-102
G'aramdagi paxta						
1.	G'aramdagi paxtaning namligi, %	8,70	8,90	8,80	9,00	9,10
	Umumiy iflosliklar miqdori, %	2,56	2,70	2,78	2,80	2,80
	shu jumladan:					
	mayda iflosliklar miqdori, %	0,78	0,84	0,80	0,86	0,85
	yirik iflosliklar miqdori, %	1,78	1,86	1,98	1,94	1,95
2.	Quritish jarayonidan keyingi paxtaning namligi, %	8,2	8,1	8,2	8,0	8,0
	Umumiy iflosliklar miqdori, %	0,79	0,78	0,83	0,96	0,90
	shu jumladan:	0,52	0,46	0,50	0,54	0,62
	mayda iflosliklar miqdori, %	0,27	0,32	0,33	0,42	0,28
	yirik iflosliklar miqdori, %					
3.	Tozalash jarayonidan keyingi paxtaning namligi, %	7,4	7,6	7,5	7,7	7,4
	Umumiy iflosliklar miqdori, %	0,51	0,47	0,54	0,50	0,49
	shu jumladan:	0,34	0,33	0,39	0,35	0,31
	mayda iflosliklar miqdori, %	0,17	0,14	0,15	0,15	0,18
	yirik iflosliklar miqdori, %					

Tadqiqot natijalari tahlilidan turli seleksiya navlarining tozalash jarayonidan keyin mayda va yirik iflosliklardan tozalanish samaradorligi 80,6% dan 82,6% ni tashkil etdi. Bundan kelib chiqadiki, Surxon-101, Termez-49 va Surxon-102 seleksiya navli paxtaning tozalanish samaradorligi boshqa seleksiya navli paxtalarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Paxta tozalash korxonasida turli seleksiya navlarini dastlabki ishlash jarayonidan keyingi chigitining mexanik shikastlanishi, tukdorligi, qoldiqli tukdorligi, chigit po‘stlog‘ining tola bilan ko‘chish qismi, yorilgan chigitlar miqdori kabi xususiyatlari tadqiq etildi.


Olingan ilmiy tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirildi.

Jinlash jarayonidan keyin turli seleksiya navlari chigitining ifloslik miqdorining o'zgarishi


T/r	Ko'rsatkichlar	Seleksiya navlari				
		Termez-49	Surxon-101	Surxon-9	Termez-208	Surxon-102
1.	Nuqsondor chigitning miqdori, %	1,5	1,6	1,1	1,2	1,8
2.	Chigitning mexanik shikastlanishi, %	2,15	2,34	2,12	1,96	2,76
3.	Chigitning tukdorligi, %	2,4	2,5	3,2	2,6	2,7
4.	Chigitning qoldiqli toladorligi, %	0,109	0,102	0,118	0,095	0,118
5.	Mineral va organik aralashmalar miqdori, %	0,13	0,14	0,12	0,14	0,15

Turli seleksiya navli paxtani qayta ishlash jarayonida chigitning mexanik shikastlanishi, nuqsondor chigitning miqdori va chigitning tukdorligi Termez-208 va Surxon-102 seleksiya navlarida boshqa seleksiya navlariga nibatan yuqori ekanligi aniqlandi.


Paxtani dastlabki ishlash jarayonidan keyin turli seleksiya navlarining tuzilishi elektron mikroskop yordamida kuzatildi. Olingan tasvirlar 1-rasmda keltirildi.




**Termez-49
seleksiya navi**




**Surxon-101
seleksiya navi**



**Surxon-9
seleksiya navi**



**Termez-208 seleksiya
navi**




**Surxon-102
seleksiya navi**


3-rasm. Paxtani dastlabki ishlash jarayonida turli seleksiya navlari tolasi tuzilishining o'zgarishi.

Turli seleksiya navlarining tuzilishi elektron mikroskop yordamida kuzatildi. Olingan rasmlardan ko'rinib turibdiki, paxta tolasini mikroskopdan qaralganda naycha ko'rinishda bo'lishi, pishgan tolalarda naychasining devori qalinroq bo'lishi, molekulalar guruhi tolaning bo'yiga nisbatan 30-40° burchak ostida yotadigan buramlarni hosil qilishi kuzatildi.

Paxta tozalash korxonalarida sifatli xomashyo olishda tadqiqot ishlari olib borildi. Uning uchun, tumanda hozirgi paytda istiqbolli Surxon-9, Surxon-101, Termez-49, Termez-208 va Surxon-102 uzun tolali seleksiya navlaridan olingan paxtani laboratoriya sharoitida LKM asbobida iflosliklardan tozalab, DL-10 jin uskunasi tolasini chigitidan ajratib, AX-M analizatorida nuqsonlardan tozalab, tola tarkibidagi nuqson va chiqindilar miqdori aniqlandi.




1-umumiy nuqson va chiqindilar miqdori;
2-urilgan yoki jarohatlangan chigitlar.
4-rasm. Turli seleksiya navlari tolasida tarkibidagi umumiy nuqson va chiqindilar miqdori va urilgan yoki jarohatlangan chigitlar miqdorining o'zgarishi.




1-pishmagan tolalar miqdori;
2-po'stloqli tola miqdori.
5-rasm. Turli seleksiya navlari tolasida tarkibidagi pishmagan tolalar va po'stloqli tola miqdorining o'zgarishi.

Сурхон-9, Термез-208, Сурхон-102 seleksiya navlari tolasining tarkibidagi nuqson va chiqindilar miqdori boshqa seleksiya navlari tolasining ko'rsatkichlariga nisbatan past ekanligi aniqlandi.

Paxtani dastlabki ishlash korxonalarida tolaning mexanik va biologik shikastlanishlarini aniqlash borasida tadqiqot ishlari olib borildi va olingan sinov natijalari 6-7-rasmlarda keltirildi.




6-rasm. Turli seleksiya navlari tolasining mexanik shikastlanishining o'zgarishi.



7-rasm. Turli seleksiya navlari tolasining biologik shikastlanishining o'zgarishi.


▨ - g'aramdagi paxta;
▣ - toylangan paxta.

Olingan sinov natijalarini g'aramdagi ko'rsatkichlariga nisbatan solishtirsak, Термез-49 seleksiya navli toylangan paxta tolasining mexanik shikastlanishi 68,0% ga, biologik shikastlanishi 33,3% ga, Сурхон-101 seleksiya navli toylangan paxta tolasining mexanik shikastlanishi 76,0% ga, biologik shikastlanishi 40,0% ga, Сурхон-9 seleksiya navli toylangan paxta tolasining mexanik shikastlanishi 62,5% ga, biologik shikastlanishi 16,7% ga, Термез-208 seleksiya navli toylangan paxta tolasining mexanik shikastlanishi 77,0% ga, biologik shikastlanishi 28,6% ga, Сурхон-102 seleksiya navli toylangan paxta tolasining mexanik shikastlanishi 68,0% ga, biologik shikastlanishi 33,3% ga oshdi.



8-rasm. Tolaning pishganlik darajasi 0-1,0 bo'lgandagi buramdorlik ko'rsatkichining o'zgarishi

▨ - g'aramdagi paxta;
▣ - toylangan paxta.




9-rasm. Tolaning pishganlik darajasi 3,0-4,0 bo'lgandagi buramdorlik ko'rsatkichining o'zgarishi.


Olingan sinov natijalaridan ko'rinib turibdiki, turli seleksiya navlari bo'yicha tolaning pishganlik darajasiga qarab, 5,7% dan 25,0% gacha oraliqda kamaydi.

Undan tashqari, paxta tozalash korxonalarida sifatli xomashyo olishda tadqiqot ishlari olib borilib, unda turli seleksiya navlaridan olingan tolaning fizik-mexanik xossalari aniqlandi.

Ilmiy-tadqiqot natijalari 10 va 11-rasmlarda keltirilgan.



10-rasm. Turli seleksiya navlari tolasining mustahkamligining o'zgarishi.



11-rasm. Turli seleksiya navlari tolasining shtapel massa uzunligi va tola chiqishining o'zgarishi.

▨ - shtapel massa uzunligi;
▣ - tola chiqish miqdori.

Tolaning shtapel uzunligi Termez-208, Surxon-9 seleksiya navlarida, tolaning solishtirma uzilish kuchi Termez-208 seleksiya navida, tolaning chiqish miqdori Surxon-102 va Surxon-101 seleksiya navlarida boshqa seleksiya navlariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda zamonaviy tipdagi Textechno Fibrotest asbobidan foydalanildi. Tadqiqot natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Turli seleksiya navlari tolasining sifat ko'rsatkichlari

t/r	Ko'rsatkichlar	Seleksiya navlari				
		Termez-49	Surxon-101	Surxon-9	Termez-208	Surxon-102
1.	Mic-mikroneyr	4,53	4,61	4,70	4,49	4,47
2.	Str-solishtirma uzilish kuchi, cN/teks	35,7	36,4	36,7	38,7	37,2
3.	UHM-yuqori o'rtacha uzunlik, dyuym	1,297	1,306	1,315	1,327	1,318
4.	SFI-kalta tolalar indeksi	5,5	5,8	6,1	5,2	5,3
5.	Emax-uzilishdagi uzayish, %	6,8	6,9	7,2	7,4	7,1
6.	SCI-yigiruvchanlik xususiyati	160,4	162,6	163,4	168,6	165,2
7.	Rd-nur qaytarish koeffitsiyenti	70,2	71,2	71,9	71,1	71,4
8.	+b-sarg'ishlik darajasi	11,9	11,8	12,1	11,5	11,6

Tadqiqot natijalarini Termez-49 seleksiya navli paxta tolasining ko'rsatkichlariga nisbatan taqqoslasak, qolgan seleksiya navlari tolasining mikroneyr ko'rsatkichi 0,9% dan 3,6% gacha, solishtirma uzilish kuchi 2,0% dan 4,0% gacha, yuqori o'rtacha uzunligi 0,7% dan 1,6% gacha, kalta tolalar indeksi 3,6% dan 9,9% gacha, yigiruvchanlik xususiyati 1,4% dan 4,9% gacha oshganligi aniqlandi. Undan tashqari, turli seleksiya navlari tolasining HVI ko'rsatkichlari asosida ipning pishqlik ko'rsatkichi aniqlandi.

Dissertatsiya ishining "Turli seleksiya navlaridan olingan iplarning sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash va uni asoslash" deb nomlangan to'rtinchi bobida paxta tolasining sifatini baholash usulini takomillashtirish asosida tajriba natijalarini qayta ishlashda kiruvchi va chiquvchi parametrlari asosida regressiya tenglamalarini tuzish, iplarning notekislik ko'rsatkichlarining o'zgarishi va iqtisodiy samaradorlikni hisoblash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. LPS-4 asbobida "Surxon-101" seleksiya nav tolasining xossalarini tadqiqoti asosida to'la omilli tajriba o'tkazilgan va olingan natijalari qayta ishlangan.

Paxta tolasining sifatini baholash usulini takomillashtirish asosida tajriba natijalarini qayta ishlashda kiruvchi va chiquvchi parametrlari asosida regressiya tenglamalari tuzildi.

